

**SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “OZODLIK” HIKOYASIDA
OZODLIK KONSEPTINING OCHIB BERILISHI**

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyas fakulteti

3-bosqich talabasi

Abdurahmonova Farangiz

ANNOTATSIYA: Mazkur MAQOLAda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Shukur Xolmirzayev asarlarida ozodlik konseptining badiiy talqini tahlil qilinadi. Adib ijodida ozodlik tushunchasi insonning ichki erkinligi, ijtimoiy muhitdan mustaqilligi hamda ruhiy poklanish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. “Ozodlik” hikoyasidagi uch xil ozodlik: inson, qush va mamlakat ozodligi haqidagi yozuvchining qarashlari bayon etilgan. Tadqiqotda yozuvchining hikoyasidagi qahramonlar misolida ozodlik konseptining falsafiy va estetik jihatlari ochib beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: hikoya, qahramon, ozodlik, mustamlakachilik siyosati, syujet.

ANNOTATION: This article analyzes the artistic interpretation of the concept of freedom in the works of the prominent representative of Uzbek literature, Shukur Xolmirzayev. In the writer’s творчество, the concept of freedom is depicted as closely connected with a person’s inner liberty, independence from the social environment, and the process of spiritual purification. The story “Freedom” presents the writer’s views on three types of freedom: human freedom, bird freedom, and national freedom. The study reveals the philosophical and aesthetic aspects of the concept of freedom through the examples of the characters in the story.

KEYWORDS: short story, character, freedom, colonial policy, plot.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется художественное осмысление концепции свободы в произведениях крупного представителя узбекской литературы Шукура Холмирзаева. В творчестве писателя понятие свободы тесно связано с внутренней свободой человека, его независимостью от социальной среды, а также процессом духовного очищения. В рассказе «Свобода» изложены взгляды автора на три вида свободы: свободу человека, птицы и государства. В исследовании на примере героев рассказа раскрываются философские и эстетические аспекты концепции свободы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: рассказ, герой, свобода, колониальная политика, сюжет.

Asarning sarlavhasiga e'tibor qaratsak, buyuk qozoq adibi Abay aytganidek: "Ishning qandayligi boshlanganidan bilinadi, tugaganidan emas". Shuningdek, asarni ham ,avvalo, sarlavhasidan boshlab tahlil qilmoq joizdir. Asar sarlavhasidan ko'rinib turibdiki, ozodlik, mustaqillik tushunchasi asar orqali ochib berilgan. Asarning obrazlar tizimida muhim rol o'ynovchi bosh qahramon Mansur obrazi orqali insonning shaxsiy ozodligi, erkinligi naqadar muhimligi haqidagi yozuvchining fikrlari namoyon bolgan. Bosqich talabasi AbdurahMansur o'z aybi bilan emas, tuhmat bilan qamalgan yigit bo'lsa-da, turmadagi 10 yillik qamoq muddatida psixik o'zgarishlar natijasida agressiv yoki axloq normalaridan uzoqlashgan inson sifatida emas, balki ozodlikning qadriga yetadigan haqiqiy inson qanday bo'lishi kerakligi haqida chuqur mulohazalarga ega bolmasa-da, oddiy, sodda inson qiyofasida, lekin jamiyatdagi o'zgarishlarga sezgir, o'z fikri, dunyoqarashiga ega, ayniqsa, inson va tabiat muammolarini juda chuqur his qilgan, balki bu muammolarni yechishga urinadigan inson sifatida gavdalanadi.

Uning ochiq mulohazalari, dialoglaridagi fikrlari orqali ozodlik haqidagi yozuvchining chuqur mulohazalari ochib berilgan:

“Ozodlikka nima yetsin... Uning qadriga, masalan, siz ham yetmaysiz. Siz ham, Shoto‘ra aka. Boboy ham... Axir, tabib – tabib emas, boshidan kechirgan tabib, deydilar-ku.”¹

“O‘rganib qolganlar, ya’ni, ust-ustiga srok olib qolaveradiganlar ham bor... Lekin men kutar edim. Ayniqsa, keyingi besh-olti oyning o‘tishi og‘ir bo‘ldi. Sal narsada toyib ketish mumkin-da... Uf-f. Him, kutubxonasi bor edi, kitob o‘qirdim. Televizor bor. Ish, ish...”²

Ushbu jumla orqali ham ko'rish mumkinki, ozodlik insoniyat uchun juda muhim, ammo inson muttasil tobelikka, mutelikka o'rgatib qo'yilsa, u erkin, ozod, ongli harakat qilish o'rniga, o'zi uchun o'zi kurashish o'rniga

bir insonga qaram bo'lib, yengil hayotda yashashni xohlaydi, negaki Bernard Shou aytganidek: " Dunyoda eng qiyin ish - o'ylash, shuning uchun ham hamma bu ish bilan shug'ullanmaydi" . Insonlar qaramlikka o'rganib qolsa, ayniqsa, bu holatiga o'zi ko'niksa, bu juda katta fojia, negaki u o'zi uchun o'ylashni emas, kimdir u uchun o'ylashini xohlaydi. Bu insoniylikdan emas, chunki insoniylikning eng muhim mezoni - ongdir, ya'ni inson ongli harakat qilishi, o'zi uchun o'ylashi, o'zi uchun o'zi harakat qilishi, hayot uchun, yaxshi hayot uchun kurashishi lozim.

Asarda ko'rsatilgan voqeliklar va syujetlar tizimiga e'tibor qaratsak, asarda uch xil ozodlik ko'rsatib berilgan:

1. Inson
2. Qush
3. Mamlakat ozodligi.

¹ Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 278b www.ziyouz.com sayti kutubxonasi

² Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. 275b www.ziyouz.com sayti kutubxonasi

Ular o'rtasidagi o'xshashliklar ham shunday muvofiqki, beixtiyor adibning mahoratiga qoyil qolamiz. Avvalo, vatanimiz O'zbekiston ham 1 asrdan ortiq mustamlakachilik siyosatini boshdan kechirdi, bu botqoqqa shunday botgan ediki, oxir - oqibat botqoqqa shunday botdiki, bu botqoqni sevib qolganlar, undan qutulishni istamaydigan qatlam shakllandiki, bu mamlakat fojiasidir. Hatto mustaqillik ne'matiga erishganimizdan so'ng ham ushbu zolim siyosatni qo'msaydiganlar o'sha davrlarni sog'inadiganlar ham oramizda ham, asarlarda ham uchrab turadi, afsuski.

Xuddi shunday bosh obraz Mansurning nutqiga e'tibor qaratsak, ba'zi mahbuslar turmaga shunday o'rganib qoladiki, ozodlikka chiqqandan so'ng ozodlikka o'rganolmaydi, erkin hayotda yashashni xohlamaydi, to'g'ri hayotda yashash uchun kurashishni azob deb his qiladi. Uchinchi toifa ozodlikni Mansur boqib olgan kaklik misolida ko'rishimiz mumkin, Qoraqosh - Xoinbeka (Yozuvchi tomonidan shunday ismi jismiga, nomi harakatlatiga mos laqab tanlanganki, beixtiyor yozuvchi mahoratiga qoyil qolamiz) ham qafasga shunday o'rganib qolganki, Mansur turli mulohazalar ta'sirida, atrofdagilarning gap-so'zlari ta'sirida, Xoinbekani qafasdan qo'yib yuborsa ham, oxirida egasi yoniga qaytib keladi. O'gangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas, deya bejiz aytmagan dono xalqimiz.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayevning yuksak salohiyati, tengsiz mahorati ushbu kichik asari - "Ozodlik" hikoyasi orqali ozodlik tushunchasini quyuq bo'yoqlarda turli real obrazlar va voqea - hodisalar orqali juda chuqur tahlil qilib bergan. Umuman olganda, asar orqali har bir o'quvchi ozodlikning qadriga yetishga, hayotda o'z hayoti uchun o'zi kurashishga, inson bo'lib, erkin shaxs bo'lib yashashga o'rgatiladi. Zero, ozodlik, erkinlik - ne'mat, uning qadriga yetish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. www.ziyouz.com sayti
2. D.Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. “Fan”. Toshkent - 2017
3. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. “Akademnashr”. Toshkent - 2013